

# BIRJAVIY TAHLIL



## Sentyabr 2024

[www.uzse.uz](http://www.uzse.uz)  
998(71)267-0842  
100170, O'zbekiston, Toshkent,  
Mustaqillik shoh ko'chasi, 107-uy

# Mundarija

<b>BIRJA SAVDOLARI.....</b>	<b>3</b>
Birja savdolari tahlili.....	4
Birja savdo maydonlari tahlili.....	5
"Bond Market" obligatsiyalar bozori.....	6
"FoP Board" aksiyalar bozori .....	7
Main Board aksiya bo'yicha Top 10.....	7
"UZSE Repo" PERO bozori.....	8
Tarmoqlar tahlili.....	9
Aksiya emitentlari umumiy bozor kapitallashuvi .....	10
Birja kotirovkalash varag'i .....	11
Bozor narxlari o'zgarishi tahlili.....	12
<b>LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI .....</b>	<b>13</b>
LTSMda savdolar tahlili .....	14
LTSM savdo maydonlari tahlili.....	15
LTSM savdo maydonining "FoP Board" aksiyalar bozori .....	16
LTSM Main Board aksiya bo'yicha Top 5.....	16

# BIRJAVIY TAHLIL




**Sentyabr**  
**2024**

# Birja savdolari tahlili

2024 –yilning sentyabr oyi davomida “Toshkent” RFB savdo maydonlarida birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan jami 1,91 trln. so'mlik 29 166 ta bitim tuzildi. Bitimlar 68 ta emitentning 2,32 mlrd dona qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirilgan.

2024 yil Sentabr oyi davomidagi savdo hajmi va bitimlar soni



Yakunlangan oy davomida eng ko'p bitimlar 6 – sentyabrda 3 325 dona amalga oshirilib, eng kam bitimlar esa 25– sentyabr sanasida tuzilib, ularning soni 175 donani tashkil etdi. Bitimlarning eng katta hajmi 16 – sentyabrda qayd etilib, kun davomida jami 1,89 trln. so'mlik bitimlar amalga oshirilgan.

Sentyabr oyida tuzilgan bitimlarning o'rtacha kunlik soni 1 535 tani va o'rtacha kunlik hajmi esa 100,48 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oy davomida “Stock Market” aksiyalar bozorining “Main Board” savdo maydonidagi bitimlarning o'rtacha kunlik hajmi 955,86 mln. so'mni tashkil etdi.

Hisobot oyida “Stock Market” aksiyalar bozorining “Nego Board” savdo maydonida 3,41 mlrd. so'mlik 7 ta bitim tuzildi. Aksiyalar bozorining “FoP Board” maydonida “Xalq Banki” ATBning qimmatli qog'ozlari bilan 1,84 trln. so'mlik 1 ta bitim qayd qilindi. Shuningdek, “Repo Market” aksiyalar bozorining “Repo Nego Board” savdo maydonida umumiy qiymati 1,41 mln. so'mlik 19 ta bitim tuzildi.

“Bond Market” obligatsiyalar bozorining “Main Board” maydonida umumiy qiymati 50,61 mlrd. so'mlik 292 ta bitim amalga oshirildi.

# Birja savdo maydonlari tahlili


2024 –yilning sentyabr oyi yakunida “Stock Market” aksiyalar bozorining G1 - “Main Board” savdo maydonida 59 ta emitentning jami 18,16 mlrd. so'mlik aksiyalari bilan 28 847 ta bitim tuzildi.

Bozor	Savdo maydoni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Bitimlar hajmi, so`m
UZSE STOCK	Main Board	28 847	483 751 668	18 161 345 301,04
	Nego Board	7	712 083	3 414 948 153,12
	FoP Board	1	1 834 000 000	1 837 000 000 000,00
UZSE REPO	Repo Nego Board	19	1 272	1 411 799,65
UZSE BOND	Main Board	292	54 003	50 613 600 461,48
Jami		29 166	2 321 519 026	1 909 191 305 715,29


Aksiyalar bozorining G1 - "Main Board" maydonida bitimlarning eng katta hajmi "ARIA SUG'URTA TASHKILOTI" AJning 4,40 mln. dona /ARST/ oddiy aksiyalari bilan 12,66 mlrd. so'mlik bitim amalga oshirilgan. Nominal qiymati 1 000,00 so'mni tashkil etuvchi qimmatli qog'ozlarning savdo narxi 2 877,10 so'mni tashkil etgan.

T1 – “Nego Board” savdo bo'limida 3,41 mlrd. so'mlik 7 ta emitent bilan 7 ta bitim qayd etildi. Ushbu bo'limda tuzilgan bitimlarning eng katta hajmi "Uzpartamonaj" AJning /UZPN/ qimmatli qog'ozlari bilan bo'lib o'tgan 1,75 mlrd. so'mlik bitimga to'g'ri keldi.

**Aksiyalar bozorining Main Board maydonida bo'lib o'tgan bitimlar soni, dona**



**Aksiyalar bozorining Main Board maydonida bo'lib o'tgan bitimlar hajmi, mlrd so'm**



# "Bond Market" obligatsiyalar bozori

Hisobot davri yakuniga ko'ra, "Bond Market" obligatsiyalar bozori "Main Board" savdo maydonida 5ta qarz instrumentlari bilan umumiy qiymati 50,61 mlrd. so'mlik 292 ta bitim tuzildi:

- IQMK5E ("UzMRC" AJ) – 50,00 mlrd. so'mlik 1 ta bitim;
- BFMT3V2 ("Biznes finans mikromoliya tashkiloti" MChJ) – 379,83 mln. so'mlik 229 ta bitim;
- IFMT4 ("Imkon finans mikromoliya tashkiloti" AJ) – 225,85 mln. so'mlik 56 ta bitim;
- BFMT3 ("Biznes finans mikromoliya tashkiloti" MChJ) – 5,01 mln. so'mlik 3 ta bitim;
- IFMT3 ("Imkon finans mikromoliya tashkiloti" AJ) – 2,91 mln. so'mlik 3 ta bitim;

Bugungi kunda "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'ida 7 ta emitentning 11 ta qarz qimmatli qog'ozlari mavjud.


№	Emitent	Tikker	Emissiya sanasi va so'ndirilish sanasi	Kupon stavkasi	Bitta obligatsiyaning nominal qiymati (so'm)	Emissiya qilingan obligatsiyalar soni
1	"Asia Alliance Bank" ATB	AABK1	15.07.2019-15.07.2026	MB asosiy stavkasiga +4%	1 000 000,00	45 175
2	"Kapitalbank" ATB	KPB4	13.05.2020-21.05.2027	MB asosiy stavkasiga +5%	1 000 000,00	50 000
3	"Biznes finans mikromoliya tashkiloti" MChJ	BFMT3	16.09.2022-30.08.2025	27,00%	1 000 000,00	6 565
		BFMT3V2	09.10.2023-13.09.2026	27,00%	100 000,00	200 000
4	"Imkon finans mikromoliya tashkiloti" AJ	IFMT3	10.04.2023-25.03.2026	28,00%	1 000 000,00	6 000
		IFMT4	24.04.2024-09.04.2027	28,00%	1 000 000,00	10 000
5	"Hamkor invest lizing" MChJ	HKIL3	25.04.2023-06.05.2026	18,00%	1 000 000,00	17 500
6	"Hamkorbank" ATB	HMBK1	30.04.2024-30.04.2025	22,00%	1 000 000,00	50 000
7	"O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ	IQMK3	20.12.2023-17.10.2026	19,00%	1 000 000,00	140 000
		IQMK3V2	17.07.2024-08.07.2027	19,00%	1 000 000,00	150 000
		IQMK5E	16.09.2024-18.09.2029	18,00%	1 000 000,00	50 000

## “FoP Board”

Joriy yilning sentyabr oyida “FoP Board” savdo maydonida 1,84 trln. soʻmlik bitim tuzildi, bu umumiy birja bitimlari hajmining 96,22 foizini tashkil etdi.

2024 yil 16 –sentyabr kuni “Stock Market” aksiyalar bozorining “FoP Board” savdo maydonida “Xalq Banki” ATBning /XKBK/ qimmatli qogʻozlari bilan 1,84 trln. soʻmlik 1 ta bitim tuzildi. Bitimlar davomida 1,84 mlrd. dona oddiy aksiyalari sotildi va aksiyalarning savdo bahosi nominal qiymatiga teng boʻlib, bir dona aksiya narxi 1 000,00 soʻmni tashkil etdi.

FoP Board maydonining umumiy bitimlar hajmidagi ulushi, %



## Main Board aksiya boʻyicha Top 10

Sentyabr oyida “Toshkent” RFBning “Stock Market” aksiyalar bozorining G1-“Main Board” aksiyalar maydonida tuzilgan bitimlar soni va hajmi boʻyicha top 10.

### Aksiya bitimlar hajmi boʻyicha Top 10, mlrd soʻm




Sentyabr oyi bo'yicha 12,66 mlrd. so'mga teng bo'lgan eng katta hajmdagi bitimlar “ARIA SUG'URTA TASHKILOTI” AJning /ARTS/ oddiy aksiyalar bilan qayd etilgan. Undan keyingi o'rinlarni mos ravishda 1,74 mlrd. va 863,58 mln. so'mga teng bo'lgan “O'zRTXB” AJning /URTS/ va “Universal bank” ATBning /UNVB/

*Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.*

oddiy aksiyalari bilan tuzilgan bitimlar egallagan. Yuqori 10 talikni "IPOTEKA-BANK" ATIBning /IPTB/ hamda "O'zbektelekom" AKning /UZTL/ odiy aksiyalari bilan tuzilgan mos ravishdagi 183,43 mln. va 182,10 mln. so'mlik bitimlar yakunlaydi.

### Aksiya bitimlari soni bo'yicha Top 10, dona



Eng ko'p bitimlar "IPOTEKA-BANK" ATIBning /IPTB/ odiy aksiyalari bilan tuzilgan bo'lib, oyiga 14 173 dona bitimni tashkil etdi. Keyingi o'rinlarni "Chilonzor buyum savdo kompleksi" AJ /CBSK/ va "Hamkorbank" ATBning /HMKB/ aksiyalari bilan mos ravishda tuzilgan 1 113 va 1 102 ta bitimlar egallaydi. Yuqori o'ntalikni "Hamkorbank" ATBning /HMTBP/ imtiyozli aksiyalari va "Qizilqumsement" AJning /QZSM/ odiy aksiyalari bilan mos ravishda tuzilgan 631 ta va 581 ta bitimlar yakunlagan.

## "UZSE Repo" PERO bozori

Hisobot davrida "UZSE Repo" aksiyalar bozorining Repo savdo maydonida 19 ta repo operatsiyasi 5 ta kompaniyaning qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshirildi: AJ <O'zRTXB>, AJ <O'zmetkombinat>, AK <Kvarts>, ATB <Hamkorbank> va AJ <O'zMRC>. Ushbu bitimlar doirasida umumiy qiymati 1,41 mln. so'mga teng bo'lgan 1 272 dona qimmatli qog'ozlari sotildi.




# Tarmoqlar tahlili

Bitimlar hajmi bo'yicha tarmoqlar ichida bank va boshqa sohalar qimmatli qog'ozlari yetakchi bo'ldi. Bank sohasi emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 1,84 trln. so'mni tashkil etdi, bu umumiy birja aylanmasining 96,32%ni tashkil etdi. Boshqa iqtisodiy sohaga taalluqli kompaniyalar qimmatli


qog'ozlari bilan – 52,63 mlrd. so'm hamda sug'urta tarmog'iga kiruvchi tashkilotlarning qimmatli qog'ozlari bilan – 12,99 mlrd. so'mlik bitimlar qayd etildi.

2024-yil Sentabr oyida iqtisodiy sohalar bo'yicha bitimlar hajmi, mlrd so'm

- Banklar (96,32%)
- Boshqalar (2,76%)
- Sug'urta (0,68%)
- Energetika (0,15%)
- Sanoat (0,04%)
- Transport (0,03%)
- Aloqa (0,01%)
- Qurilish (0,01%)
- Agrosanoat (0,00%)
- Lizing (0,00%)



2024-yil Sentyabr oyida iqtisodiy sohalar bo'yicha bitimlar soni, dona




Eng ko'p bitimlar soni bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bo'lib, 21 089 ta bitimni tashkil etdi. Boshqa sohalar qimmatli qog'ozlari bilan 2 617 dona, "Sanoat" sohasiga aloqador emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan esa 1 230 ta bitim tuzildi. Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha eng kam bitimlar soni "Transport" sohasida – 61 dona, va "Lizing" tarmog'ida – 13 donaga teng

bo'lgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlarga to'g'ri keldi.

# Aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi

Hisobot davrida birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvida 232,61 trln. so'mdan 235,29 trln. so'mgacha bo'lgan diapazonda o'zgarishlar qayd etildi.

2024 yil Sentyabr oyi uchun birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi, trln so'm



Bozor kapitallashuvining eng katta hajmi 11 – sentyabrga to'g'ri kelib, 235,29 trln. so'mgacha ko'tarilgan. Bozor kapitallashuvining eng past qiymati 19 sentyabr kuni qayd etilgan bo'lib, ushbu davrda emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi 232,61 trln. so'mni tashkil etgan. Shuni ta'kidlash joizki, hisobot davrining yakuniga qadar umumiy bozor kapitallashuvi kichik tebranishlar bilan barqarorlikni ushlab turibdi.

2024 – yil 30 –sentyabr holatiga ko'ra, birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan aksiya emitentlarining umumiy bozor kapitallashuvi 234,83 trln. so'mni tashkil etdi. Oy boshi bilan solishtirganda ushbu ko'rsatkich 0,54 foizga oshgan. Davr oxirida aksiya emitentlari soni 103 donaga yetdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan emitentlar soni 5 taga kamayganiga qaramay, umumiy bozor kapitallashuvi 90,81 trillion so'mga oshgan (61,33%).

## Birja kotirovkalash varag'i

2024 yil 1-sentyabr holatiga ko'ra, birja kotirovkalash varag'ida 105 ta emitentning 160 ta instrumentlari mavjud edi.

Joriy oyda "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'i to'g'risida"gi Nizomning 62-bandiga muvofiq, "O'zElektroterm" AJning oddiy /UZET/ va imtiyozli /UZETP/ aksiyalari "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'idan chiqarildi.

Joriy davr davomida, 4 ta emitentning 4 ta instrumentlari birja kotirovkalash varag'iga kiritildi:


Nº	Emitent	Qimmatli qog'o'z kodi	Qimmatli qog'oz turi	Tiket	Listingga kiritilgan sana
1	"O'zvagonta'mir" AJ	UZ7051840005	Oddiy aksiya	UVGT	06.09.2024
2	"ARIA SUG'URTA TASHKILOTI" AJ	UZ7057440016	Oddiy aksiya	ARST	10.09.2024
3	"O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ*	UZ6056887AC7	Qarz qimmatli qog'ozlari	IQMK5E	16.09.2024
4	"Boshtransloyiha" AJ	UZ7052610001	Oddiy aksiya	BTRL	16.09.2024

\*ushbu emitentning boshqa qimmatli qog'o'zi birja kotirovkalari ro'yxatiga kiritilgan


Natijada, 2024 – yil 30 – sentyabr holatiga ko'ra, birja kotirovkalash varag'ida 107 ta emitentning 162 ta instrumenti mavjud bo'lib, ulardan: 103 tasi aksiyalar, 3 tasi obligatsiyalar emitentlari; 4 ta emitent - faqat obligatsiya emitentlari hisoblanadi.

Listing kategoriyalari bo'yicha aksiyalar bozorining birja bitimlari to'g'risidagi ma'lumot

Bitimlar soni, dona



Bitimlar hajmi, mlrd so'm



# Savdo narxlari o'zgarishi tahlili

2024 – yil Sentyabr oyidagi eng likvidli qimmatli qog'ozlar\*\* narxidagi o'zgarishlar\*

№	Emitent nomi Tikker	01.09.2024 yildagi yopilish narxi	30.09.2024 yildagi yopilish narxi	Narxlar o'zgarishi	Yopilish narxi dinamikasi
1	ATIB "Ipoteka-bank" IPTB	1,05	1,58	50,48%	
2	AJ "Chilonzor buyum savdo kompleksi" CBSK	1,71	2,12	23,98%	
3	AJ "O'zbektelekom" UZTL	4 315,23	4 600,00	6,60%	
4	AJ "Qizilqumsement" QZSM	1 805,00	1 899,00	5,21%	
5	ATB "Hamkorbank" HMKB	24,39	24,89	2,05%	
6	ATB "Ipak Yo'li" IPKY	204,98	200,00	-2,43%	
7	ATB "Hamkorbank" HMKBP	21,50	20,95	-2,56%	
8	AJ "O'zRitXB" URTS	16 500,00	15 398,00	-6,68%	
9	ATIB "Ipoteka-bank" IPTBP	3,60	3,23	-10,28%	
10	ATB "Turonbank" TNBN	3 240,00	2 880,00	-11,11%	


\* Hisobot oyidagi birinchi bitimning ochilish narxlari va oxirgi bitimning yopilish narxlari taqqoslangan.

\*\*Bitimlar soni bo'yicha top 10ta qimmatli qog'ozlar eng likvidli qimmatli qog'ozlar sifatida qabul qilingan (8-bet)

Sentyabr oyi boshidagi aksiyalarning yopilish narxi bilan 30 – sentyabrdagi yopilish narxini solishtirsak, eng ko'p savdo qilingan aksiyalar orasida beshta emitent qimmatli qog'ozlari narxi ▲2,05% dan ▲50,48% gacha oshgani qayd etildi. Narxlarning sezilarli o'sishini ▲50,48% va ▲23,98% bilan "Ipoteka-bank" ATIBning /IPTB/ va "Chilonzor buyum savdo kompleksi" AJning /CBSK/ oddiy aksiyalari ko'rsatdi. Shuningdek, "O'zbektelekom" AJning /UZTL/, "Qizilqumsement" AJning /QZSM/ va "Hamkorbank" ATBning /HMKB/ oddiy aksiyalari mos ravishda ▲6,60%, ▲5,21% va ▲2,05% ga oshdi.

Joriy oyda uchta emitentning qimmatli qog'ozlari narxlarida biroz pasayish kuzatilgan bo'lib, narx tushish darajasi ▼2,43% - ▼6,68% oralig'ida bo'lgan bir vaqtda, "Ipoteka-bank" ATIBning /IPTBP/ imtiyozli va "Turonbank" ATBning /TNBN/ oddiy aksiyalari mos ravishda ▼10,28% va ▼11,11% ga arzonlashdi.


# LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI




**Sentyabr**  
**2024**

# LTSMda savdolar tahlili

Ko'rib chiqilayotgan davrda "Toshkent" RFBning listingdan tashqari savdo maydonlarida 72 ta emitentning 197,47 mln. dona qimmatli qog'ozlari bilan jami 31,75 mlrd. so'mlik 3 558 ta bitimlar qayd etildi.



Kundalik hisobda eng ko'p bitimlar 9 – sentyabr kuni amalga oshirilgan bo'lib, 301 donani; eng kami esa 25 – sentyabrda qayd etilgan bo'lib, 4 dona bitimni tashkil etgan. Sentyabr oyida o'rtacha kunlik savdo bitimlari soni 187 ta bitimni tashkil etgan bo'lib, bu o'tgan oyga nisbatan 44%ga ko'p.



Bitimlarning eng katta hajmi 19 – sentyabr kunida amalga oshirilgan bo'lib, kun davomida 20,01 mlrd. so'mdan ortiq bitimlar amalga oshirilgan, eng kam bitimlar hajmi 25 – sentyabr kuni 86,60 ming so'mni tashkil etgan. Sentyabr oyida o'rtacha kunlik savdolar hajmi 1,67 mlrd. so'mni teng bo'ldi.

# LTSM savdo maydonlari tahlili


“SME Stock” aksiyalar bozorining G1 – “Main Board” listingdan tashqari asosiy savdo maydonida 69 ta emitentning aksiyalari bilan jami 7,14 mlrd. so'mlik 3 554 ta bitimlar qayd etildi.

Bozor	Savdo maydoni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Bitimlar hajmi, so'm
SME STOCK	Main Board	3 554	176 844 174	7 137 860 758,98
	Nego Board	2	627 549	4 613 257 545,00
	FoP Board	2	20 000 000	20 000 000 000,00
JAMI		3 558	197 471 723	31 751 118 303,98


Listingdan tashqari aksiyalar bozorining G1- “Main Board” savdo maydonida bitimlarning eng katta hajmi “PLUM TECHNOLOGIES” AJning umumiy qiymati 5,12 mlrd. so'm bo'lgan 5,12 mln dona /OPTG/ aksiyalar bilan savdolar amalga oshirildi. Aksiyalarning savdo narxi nominal qiymatiga teng bo'lib 1 000,00 so'mni tashkil etdi.

“SME Stock” listingdan tashqari aksiyalar bozorining “Nego Board” bo'limida ikkita bitim qayd etildi: birinchisi- “ENERGOTA'MIR” AJning 15,75 ming dona aksiyalari bilan /A047860/, ikkinchisi- “EUROASIA LIFE INSURANCE” AJning 611,80 ming dona aksiyalari bilan /A057140/ tuzildi. Bitimlarning umumiy hajmi mos ravishda 4,00 mlrd. va 611,80 ming. som'ni tashkil etdi. “ENERGOTA'MIR” AJning aksiyalarining nominal qiymati 5,00 ming. so'm bo'lgan o'rinda, savdo narxi 254,06 ming. so'mni tashkil etdi. “EUROASIA LIFE INSURANCE” AJ aksiyalarining savdo narxi nominal qiymatiga teng bo'lib, bir dona aksiya 1 000,00 so'mni tashkil etdi.

**Aksiyalar bozorining Main Board savdo maydonidagi bitimlar soni, dona**



**Aksiyalar bozorining Main Board savdo maydonidagi bitimlar hajmi, mlrd so'm**




*Ushbu hujjat faqat ma'lumot uchun taqdim etilgan va qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha taklif, xususan, ularni sotib olish yoki sotish bo'yicha taklifni tashkil etmaydi.*

## "FoP Board" aksiyalar bozori maydoni

Joriy yilning sentyabr oyida "FoP Board" listingdan tashqari savdo maydoni seksiyasida 20,00 mlrd. so'mlik 2 ta bitim tuzildi, bu umumiy birja bitimlari hajmining 62,99 foizini tashkil etdi.

2024 yil 19 – sentyabr kuni "Stock Market" listingdan tashqari aksiyalar bozorining "FoP Board" savdo platformasida "MY-INSURANCE" ASKning /A057330/ qimmatli qog'ozlari bilan har biri 10,00 mlrd. so'mlik 2 ta bitim tuzildi. Bitimlar davomida 20,00 mln dona oddiy aksiyalari sotildi va aksiyalarning savdo bahosi nominal qiymatiga teng bo'lib, bir dona aksiya 1 000,00 so'mni tashkil etdi.


FoP Board maydonining umumiy bitimlar hajmidagi ulushi, %



## Main Board bo'yicha Top 5 aksiya emitentlari

"Toshkent" RFBning "SME Stock" aksiyalar bozorining G1- "Main Board" listingdan tashqari aksiyalar savdo maydonida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha Top 5.


Bitimlar soni bo'yicha Top 5 aksiya emitentlari, dona





Eng ko'p bitimlar soni "Uzsanoateksport" AJning /A056290/ aksiyalari bilan tuzilgan 1 223 dona bitimga to'g'ri keldi. Undan keyingi o'rinlarni "KAFOLAT " AJning imtiyozli /OKFSP/ va oddiy /OKFS/ aksiyalari bilan mos ravishda tuzilgan 214 va 209 ta bitimlar egalladi. Top-5likni umumiy qiymati mos ravishda 2,18 mlrd. va 8,62 mln. so'mni tashkil qilgan "Xonqa don maxsulotlari" AJning /A027950/ va "Uzikkilamchiranglimetall" AJning /UVCM/ oddiy aksiyalari bilan tuzilgan 186 va 172 ta bitimlar yakunladi.

#### Bitimlar hajmi bo'yicha Top 5 aksiya emitentlari, mlrd. so'm



Bitimlarning eng katta hajmini "PLUM TECHNOLOGIES" AJning /OPTG/ va "Madad Invest Bank " ATBning /A056430/ aksiyalari bilan mos ravishda 5,12 mlrd. va 1,13 mlrd. so'mlik bitimlar tashkil etdi. Undan keyingi o'rinlarni "TOSHKENTVINO KOMBINATI" AJning /A028090/ va "HUMANS COMPANIES" AJning /A057171/ aksiyalari bilan mos ravishda 137 va 23 ta tuzilgan 481,95 mln. va 180,13 mln. so'mlik bitimlar egalladi. Top-5likni umumiy qiymati 92,83 mln. so'mga teng bo'lgan "G'alla-Alteg" AJning /A035470/ aksiyalari bilan tuzilgan 2 ta bitim yakunladi.